

MAKTABLARDA PSIXOLOGLARNING IJOBIY FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISH

Malika Xamirxodjayeva Djaferovna
Uchqo'rg'on tumani 36-maktab psixologi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada maktab psixologlarining kasbiy faoliyatini rivojlantirish, ularning ijobiy faolligini oshirish hamda ta'lim muassasasidagi psixologik xizmat samaradorligini kuchaytirish masalalari yoritiladi. Shuningdek, psixologlarning kasbiy kompetensiyasi va motivatsiyasini oshirish omillari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: maktab psixologi, psixologik xizmat, kasbiy rivojlanish, motivatsiya, psixologik muhit, ta'lim, kommunikativ ko'nikma, ijobiy faollik.

KIRISH

Bugungi kunda maktab psixologining faoliyati ta'lim tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Psixologlarning ijobiy faolliги o'quvchilarning ruhiy salomatligi va sog'lom psixologik muhitni shakllantirishda katta ahamiyatga ega.

Maktab psixologi o'quvchilar, pedagoglar va ota-onalar bilan hamkorlikda ishlaydi. Shu sababli uning kasbiy tayyorgarligi va kommunikativ ko'nikmalari yuqori bo'lishi zarur. Psixologning ijobiy faolliги avvalo uning kasbga bo'lgan qiziqishi va motivatsiyasi bilan bog'liqdir. O'z ishini sevuvchi mutaxassis ta'lim muassasasida samarali faoliyat olib boradi. Kasbiy rivojlanish uchun psixolog doimiy ravishda yangi bilim va zamonaviy metodlarni o'rganib borishi kerak. Seminar, trening va malaka oshirish kurslari bu borada muhim vosita hisoblanadi.

Maktabdagi sog'lom psixologik muhit ham psixolog faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Rahbariyat va pedagogik jamoaning qo'llab-quvvatlashi mutaxassisning ish samaradorligini oshiradi. Psixologning ijobiy faolliги o'quvchilar bilan ishlash jarayonida ham namoyon bo'ladi. Samimiy muloqot, empatiya va tushunuvchanlik bolalarda ishonch hissini shakllantiradi. Psixologik treninglar, profilaktik tadbirlar va individual suhbatlar psixologik xizmat samaradorligini oshirishga yordam beradi. Bu orqali o'quvchilarning emotsional holati yaxshilanadi. Ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish ham muhim omildir. Psixolog tomonidan beriladigan tavsiyalar oiladagi sog'lom muhitni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shuningdek, psixologning ijodkorligi va tashabbuskorligi uning kasbiy faoliyatini yanada rivojlantiradi. Zamonaviy innovatsion yondashuvlar ish samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Psixologik xizmatlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun pedagoglar va psixologlarning hamkorligi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Birgalikda ishlash orqali ular

o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini aniqlashlari, moslashtirilgan tadbirlarni ishlab chiqishlari va o‘quvchilarning har tomonlama rivojlanishini ta’minlaydigan yordam muhitini yaratishlari mumkin. Biroq, cheklangan resurslar, stigma va kasbiy rivojlanish zarurati kabi muammolar maktablarda psixologik xizmatlarni samarali taqdim etishga to‘sqinlik qilishi mumkin. Psixologik xizmat o‘z faoliyatida tibbiy, defektologik va boshqa xizmat turlari bilan, bola tarbiyasida yordam ko‘rsatuvchi jamoatchilik xodimlari bilan yaqin aloqada ish olib boradi. Barcha mutaxassislar bilan munosabat tenglik asosida va fikrlarning bir-birini o‘zaro to‘ldirishi asosida quriladi.

Yosh avlod tarbiyasi barcha davrlarda ham muhim va dolzarb masala hisoblangan. Bugungi kunda ham mamlakatimizda ta’lim tizimini rivojlantirish, yoshlarni har tomonlama yetuk inson etib tarbiyalash borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Yangi O‘zbekistonning kelajagi yoshlarning puxta bilim olishi, kasbiy malakaga ega bo‘lishi, ma’naviy barkamolligi va psixologik salomatligiga chambarchas bog‘liqdir. Shu bois ta’lim tizimida psixologik xizmat faoliyati muhim o‘rin egallaydi.

Psixologik xizmatning asosiy vazifalaridan biri o‘quvchilarning psixologik salomatligini asrash, ularning shaxs sifatida barkamol rivojlanishiga ko‘maklashishdan iboratdir. Psixologik xizmatning shakllanish tarixi uzoq davrlarga borib taqaladi. Ushbu soha dastlab AQSHda XIX asrning oxirlarida rivojlana boshlagan bo‘lib, ilk amaliyotchi psixologlar insonning o‘zini-o‘zi tarbiyalash va aqliy rivojlanish masalalarini tadqiq etganlar. Keyinchalik Amerika maktablarida aqliy taraqqiyot koeffitsiyentini aniqlash bo‘yicha tadqiqotlarning keng qo‘llanilishi “Gaydens” xizmatining shakllanishiga asos bo‘ldi.

Fransiyada esa maktab psixologiyasining rivojlanishida Alfred Bine alohida o‘rin tutadi. U 1894-yildan boshlab ushbu yo‘nalishda faoliyat olib borgan. 1905-yilda Fransiya Ta’lim vazirligi tomonidan umumiy dastur asosida ta’lim ololmayotgan bolalarni o‘rganish vazifasi yuklatilgach, Bine-Simon testi yaratilgan. Mazkur test aqliy rivojlanishda ortda qolayotgan bolalarni aniqlashda muhim vosita bo‘lib xizmat qilgan. 1909-yilda esa Fransiyada maktab psixologik xizmati tashkil etilgan.

Umumiy o‘rta ta’lim tizimidagi psixologik xizmatning asosiy maqsadi shaxsning har tomonlama uyg‘un rivojlanishini ta’minlash, uning to‘laqonli psixologik taraqqiyoti uchun qulay shart-sharoitlar yaratishdan iboratdir. Psixologik xizmat faoliyatida maktabgacha yoshdagi bolalar, o‘quvchilar, pedagoglar hamda otalar asosiy tadqiqot obyekti hisoblanadi. Ular bilan individual va guruh shaklida ish olib borilishi mumkin.

Ta’lim tizimidagi psixologik xizmat uch bosqich asosida tashkil etiladi. Yuqori bosqichda psixologiya kafedralari va ilmiy markazlar tomonidan metodik tavsiyalar, ilmiy-amaliy hujjatlar hamda diagnostik metodikalar ishlab chiqiladi. O‘rta bosqichda

psixologik markazlar yangi metodlarni amaliyotga tatbiq etib sinovdan o'tkazadilar. Quyi bosqichda esa amaliy psixologlar bevosita ta'lim muassasalarida faoliyat olib boradilar.

Psixologik xizmatning mazmuni turli yo'nalishlarni qamrab oladi. Jumladan, psixodiagnostik tadqiqotlar o'tkazish, psixologik maslahat berish, psixologik konsiliumlar tashkil etish, psixokorreksion treninglar va psixodramma mashg'ulotlarini amalga oshirish, shuningdek, o'quv-tarbiya jarayonini psixologik jihatdan tahlil qilish ushbu xizmatning asosiy tarkibiy qismlaridir.

O'zbekistonda psixologik xizmat faoliyatiga oid nizom *Алфавит* 1996-yilda Xalq ta'limi vaziri tomonidan tasdiqlangan bo'lib, 2001-yilda unga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilgan. Hozirgi davrda psixologik xizmat faoliyati ikki muhim yo'nalishda olib boriladi: dolzarb va kelajak yo'nalishlari. Dolzarb yo'nalish o'quvchilarning xulq-atvori, muloqoti va ta'lim-tarbiyasidagi muammolarni bartaraf etishga qaratilgan bo'lsa, kelajak yo'nalishi har bir bolaning individual qobiliyatlarini rivojlantirish va uni jamiyat hayotiga psixologik jihatdan tayyorlashga xizmat qiladi.

Psixolog pedagogik jamoa faoliyatiga o'quvchi shaxsining uyg'un rivojlanishi haqidagi asosiy psixologik g'oyalarni olib kiradi. U o'zining kasbiy bilimlari asosida bolalarning yosh xususiyatlari, qobiliyatlari, psixik rivojlanish qonuniyatlari va shaxslararo munosabatlarini o'rganadi. Shu asosda o'quvchilarga individual yondashuvni tashkil etadi, ularning qobiliyatlarini aniqlaydi va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan psixologik muammolarni korreksiya qilish yo'llarini belgilaydi.

Psixologik xizmatning samarali tashkil etilishi ta'lim-tarbiya sifatini oshirish, ijodkor va faol shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son qarori asosida yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash hamda ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha muhim vazifalar belgilangan. Mazkur hujjat asosida Vazirlar Mahkamasi tomonidan ta'lim muassasalarida psixologik xizmat faoliyatini yanada takomillashtirish yuzasidan qaror *қабул қилинган*.

Unga ko'ra, ta'lim muassasalarida psixologik xizmatni sifatli tashkil etish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish samaradorligini oshirish, yoshlarning qobiliyat va qiziqishlarini aniqlash, ijtimoiy moslashuv muammolarini bartaraf etish, pedagogik jamoalarda sog'lom psixologik muhit yaratish kabi vazifalar ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan.

Bundan tashqari, iste'dodli va iqtidorli o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash, internet va "ommaviy madaniyat"ning salbiy ta'sirlaridan yoshlarni himoya qilish, ot-onalar hamda pedagoglarning psixologik-pedagogik bilimlarini oshirish ham psixologik xizmatning muhim vazifalari sirasiga kiradi.

Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50-moddasida alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalar uchun inklyuziv ta’lim va tarbiya ta’minlanishi belgilab qo‘yilgani ham psixologik xizmatga bo‘lgan e’tibor tobora ortib borayotganidan dalolat beradi. Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti barcha soha vakillarining fidokorona mehnati bilan barpo etiladi. Shu jarayonda psixologlar ham yosh avlodning sog‘lom ruhiy kamoloti, ma’naviy barkamolligi va jamiyatda munosib o‘rin egallashiga munosib hissa qo‘shib kelmoqdalar.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, maktablarda psixologlarning ijobiy faolligini rivojlantirish ta’lim sifati va o‘quvchilarning ruhiy salomatligini yaxshilashda muhim ahamiyatga ega. Kasbiy motivatsiya, malaka va hamkorlik orqali psixologik xizmat samaradorligini yanada oshirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (yangi tahrirdagi) 01.05.2023.
2. Psixologik xizmat haqida Nizom.1996
3. Z.T.Nishanova. Psixologik xizmat. © “Yangiyul poligraph service” M CHJ, 2007. 3-4betlar.
4. Z.T.Nishanova, M.Xolnazarova. Psixologik xizmat.Toshkent – 2017. 6;13,14-betlar.
5. Ziyonet.net